



ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARIDAGI SHE’RIY PARCHALARDA BADIY TASVIR VOSITALARI VA SHOIRNING G’OYAVIY QARASHLARI

Davlatov Sarvar

*Nizomiy nomidagi O‘ZMPU
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi she’riy parchalar orqali qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari tahlil qilinadi. Xususan, tashbeh, ishtiqaq, tazod, tajnis, kabi vositalarning asar g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, ruboiylar misolida inson ruhiyati, axloqiy kamoloti va tasavvufiy qarashlarning ifodalanishi ilmiy asosda tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub, badiiy tasvir vositalari, tashbeh, ishtiqaq tazod, tajnis, ruboiy, tasavvuf, axloqiy kamolot, adabiyotshunoslik.

Аннотация: В данной статье анализируются художественные средства, использованные в поэтических фрагментах произведения Алишера Навои «Махбуб ул-кулуб». В частности, освещается роль таких художественных приёмов, как ташбих, иштикоқ, тазод и таджнис, в раскрытии идейно-художественного содержания произведения. Кроме того, на примере рубаи на научной основе исследуется отражение внутреннего мира человека, его нравственного совершенства и суфийских взглядов.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Махбуб ул-кулуб», художественные средства выразительности, ташбих, иштикоқ, тазод, таджнис, рубаи, суфизм, нравственное совершенство, литературоведение.

Abstract: This article analyzes the artistic devices employed in the poetic passages of Alisher Navoi's work *Mahbub ul-Qulub*. In particular, it highlights the role of such literary devices as simile, derivation (ishtiqaq), antithesis, and paronomasia (tajnis) in revealing the ideological and artistic content of the work. Furthermore, based on examples of rubaiyat, the article scientifically examines the representation of human spirituality, moral perfection, and Sufi views.

Keywords: Alisher Navoi, *Mahbub ul-Qulub*, artistic devices, simile, derivation (ishtiqaq), antithesis, paronomasia (tajnis), rubai, Sufism, moral perfection, literary studies.

Alisher Navoiy ijodi o‘zbek mumtoz adabiyotining eng yuksak cho‘qqilaridan biri hisoblanadi. Uning “Mahbub ul-qulub” asari nafaqat nasriy asar sifatida, balki undagi she’riy parchalar orqali ham chuqur badiiy va falsafiy mazmun kasb etadi. Ushbu asarda shoir inson ruhiyati, axloqiy kamoloti hamda ijtimoiy munosabatlarni yoritishda turli badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanadi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy tasvir vositalarining o'rganilishi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular orqali muallifning g'oyaviy niyati, estetik qarashlari va badiiy mahorati namoyon bo'ladi. "Mahbub ul-qulub"dagi she'riy parchalarni tahlil qilish esa Navoiy ijodining yanada chuqur qatlamlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, Mahbub ul-qulub asari nasriy shaklda yozilgan bo'lsa-da, unda o'rinli tarzda keltirilgan she'riy parchalar orqali muallif o'z fikrlarini yanada obrazli, lo'nda va ta'sirchan ifodalashga erishadi. Ushbu she'riy parchalarda tashbeh (o'xshatish), tanosub, tazod (qarshilantirish), tajnis (so'z o'yinlari), mubolag'a (kuchaytirish) kabi ko'plab badiiy tasvir vositalari keng qo'llanilgan bo'lib, ular asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini chuqurlashtiradi.

Badiiy tasvir vositalari orqali Alisher Navoiy inson ruhiyati, axloqi va ijtimoiy munosabatlarini nozik psixologik tahlil qiladi. Xususan, tashbeh va istiora vositalari yordamida mavhum tushunchalar jonlantiriladi, tazod orqali esa ezgulik va yovuzlik, komillik va nodonlik o'rtasidagi keskin ziddiyatlar ochib beriladi. Bu esa o'quvchiga faqat ma'lumot beribgina qolmay, balki uni mushohada qilishga, xulosa chiqarishga undaydi.

Shuningdek, she'riy janrlarda qo'llanilgan badiiy vositalar Navoiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyatini ham oshiradi. Har bir obraz, har bir badiiy ifoda insonni komillikka chorlaydi, uni axloqiy jihatdan yuksalishga undaydi. Shu bois, mazkur faslda badiiy tasvir vositalarining nafaqat lingvistik, balki g'oyaviy-estetik funksiyasi ham alohida o'rganiladi.

Umuman olganda, ushbu faslning asosiy maqsadi — Mahbub ul-qulub asaridagi she'riy parchalar orqali qo'llanilgan badiiy tasvir vositalarini aniqlash, ularning turlari va vazifalarini tahlil qilish hamda ular yordamida Alisher Navoiyning g'oyaviy-badiiy olamini chuqurroq ochib berishdan iboratdir.

"Mahbub ul-qulub"ning ikkinchi qism tortinchi bobida qanoat zikri keltiriladi, unda "kimning "ganoat" degan hislari bo'lsa, uning barcha el orasida izzat-u hurmati bor. Kimning tama-yu hirs bilan oshnoligi bo'lsa, yaxshi-yomon ichida xorlig-u baxtsizligi bor", deya ta'riflanadi. Shu bobning so'ngida keltirilgan quyidagi ruboiy ham ganoatning go zal ta'rifi bolib, asarda uchraydigan eng sara aforizmlardan biridir.

Masalan: ruboiy o`zining to`rt misradan tashkil topishi, ko`proq a-a-b-a (kamroq a-a-a-a) tarzida qofiyalanishi kabi shakl ko`rsatkichlari asosida ajratiladi;[3.390]

Har kimki, qanoat tarafi nisbati bor,
Barcha el aro tavozu izzati bor,
Ulkim tama'u hirs bila ulfati bor,
Yaxshi-yamon ichra zillatu nakbati bor.[2.59]

Bu ruboiy ham taronayi ruboiy hisoblanadi. Barcha misralar a-a-a-a tarzida o'zaro gofiyalangan ("nisbati" — "izzati" - "ulfati" - "nakbati"). Raviydan so'ng kelgan - i egalik qo shimchasi ham o' zaro ohangdosh. Shuning uchun she'r qofiyasi mutlaq qofiya turiga kiradi. "bor" so'zi esa radif bo'lib kelgan.

Ruboiyda tanosib san'atidan unumli foydalanilgan. Ya'ni qanoat, tavozu, izzat hamda tama, hirs, zillat tushunchalari ma'no jihatdan bir-biriga yaqin, aloqador tushunchalarni anglatadi.

Yo rabki, fano qushin romim ayla,
Romim demayinki, saydi domim ayla.

Ham faqr tariqida xiromim ayla,
Ham zoviyayi fano maqomim ayla.[2.50]

Ushbu ruboiy Alisher Navoiyning Mahbub ul-qulub asarida tasavvufiy-falsafiy qarashlarni ifodalovchi eng chuqur mazmunga ega she'riy parchalardan biridir. Unda inson ruhining ilohiy haqiqat sari intilishi, nafsdan voz kechish va ma'naviy kamolot bosqichlariga ko'tarilishi tasvirlanadi. Ruboiyda shoir Allohga murojaat qilib, avvalo o'zini "fano qushi"ga bog'lashni so'raydi. Bu yerda fano — insonning o'z "men"idan kechib, ilohiy borliqqa singib ketish holatini anglatadi. Shoirning bu istagi oddiy taslimlik emas, balki ruhiy yuksalish sari ilk qadam sifatida namoyon bo'ladi. Keyingi misrada bu holat yanada chuqurlashadi: "romim demayinki, saydi domim ayla" degan ifoda orqali shoir o'zini erkin emas, balki ilohiy muhabbat tuzog'iga butunlay asir bo'lishini istaydi. Bu esa ruhiy bog'lanishning kuchayishini bildiradi.

So'nggi ikki misrada esa tadrij san'ati yaqqol namoyon bo'ladi. Ya'ni shoir ma'naviy holatni bosqichma-bosqich yuksaltirib boradi: avval "faqr tariqi" — kamtarlik va dunyodan voz kechish yo'li tilga olinadi, keyin esa "zoviyayi fano maqomi" — eng oliy ruhiy daraja, ya'ni o'zlikning yo'qolib, mutlaq ilohiy haqiqatga singish bosqichi ifodalanadi. Bu darajama-daraja yuksalish tasavvufiy yo'lning asosiy mohiyatini aks ettiradi.

Mazkur badiiy ifoda orqali Alisher Navoiy inson ruhining komillikka yetishishi bir zumda emas, balki bosqichma-bosqich ma'naviy sayr orqali amalga oshishini ta'kidlaydi. Mahbub ul-qulubdagi bu kabi ruboiylar o'quvchini nafsdan poklanish, kamtarlik va ilohiy muhabbat sari intilishga undaydi.

Ahbob, yigitlikni g'animat tutunguz.
O'zni qariliq mehnatidin qo'rqtunguz.
Oyini adovat-u hasaddin o'tunguz,
Har nav' ila o'zni necha kun ovutunguz.[2.126]

Ushbu ruboiy "Mahbub ul-qulub" asarining 105-tanbehi tarkibida kelgan. Mazkur tanbehga "Shabob ayyomi zikrida" ("Yoshlik davri zikrida") degan sarlavha qo'yilgan. Unda "umr gulshanining bahori... va hayot shabistoni (kechasi)ning nahori (kunduzi)" bo'lgan yigitlik davri xususiyatlari ta'riflanadi.

Ruboiy ana shu tanbehning xulosasi sifatida kelgan. Unda shoir to'g'ridan to'g'ri nasihatga o'tadi. Ruboiyning "ahbob" ("do'stlar") degan undalma bilan boshlanishi ham, misralardagi ma'no yo'nalishi ham, jumlalaming shakliy tuzilishi ham shunday deyishimiz uchun to'la asos beradi. Bu ruboiysida shoir nido san'atidan o'rinli foydalangan. Barcha misralar a-a-a-a tarzida qofiyalanib ruboyi tarona usulida yozilgan. Raviydan so'ng kelgan qo'shimchalar ham ohangdosh bo'lgani uchun mutlaq qofiyaga kiritish mumkin.

Ruboiyning har bir satriida bir o'git ilgari surilgan:

- 1-misrada shoir do'stlariga yigitlik davrini g'animat bilishni;
- 2-misrada o'zni hali oldinda qarilik mashaqqatlari borligi bilan qo'rqtishni, ya'ni hozirgi kuch-quwatga to'la davming qadriga yetishni;
- 3-misrada boshqalarga adovat va hasad qilish odatlarining bahridan o'tishni;
- 4-misrada esa, har qanday yo'l bilan bo'lsa ham, o'zni necha kun, ya'ni ana shu yoshlik davrida ovutishni nasihat qiladi.

Ruboiydagi "ahbob"ga murojaat - bir badiiy vosita, xolos. Chunki bu gaplarini muallif faqat o'zining do'stlarigagina qarata aytgan, deb hisoblasak, asarning ahamiyatini kamaytirib, uning ta'sir maydonini cheklab qo'ygan bo'lamiz. Bu ruboiy, shoirning har ganday asari kabi, makon va zamon tushunchalari qobiqlarini yorib o'tadi, bu jihatdan u chegara bilmaydi. Hayot bor ekan, insoniyat majud ekan, yoshlik va garilik tushunchalari bo'ladi. Shoir lirik gahramoni qarilik shabadalari esmasidan burunroq yoshlikning qadriga yetishni, ya'ni uni g'animat bilishni targ'ib qilyapti.

Yoshlikni g'animat bilish tushunchasining mohiyati esa juda keng. U kishini aynan yoshlikda hayot yo'lini mustahkam qilib qurishga, baxtli qarilikning poydevorini oldindan qurishga, buning uchun adovat va hasad kabi illatlardan forig' bo'lib, ana shu yoshlik davrini yaxshi o'tkazishga undaydi.

Ruboiy - ana shunday g'oyaviy, ijtimoiy, ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bular boisi barcha nafsoniyat
 Ki, anda emas doxil insoniyat.
 Qo'nolg'a olib qayda qo'nsa diram,
 Ot arpasi ham, qushig'a tu'ma ham.[1.99]

Baytning birinchi misrasida shoir barcha illatlarning ildizi **nafsoniyat**, ya'ni insonning o'z nafsiga qul bo'lib qolishida ekanini ta'kidlaydi. "Anda emas doxil insoniyat" degan jumla orqali esa bunday xulq-atvorda haqiqiy insoniy fazilatlar yo'qligi uqtiriladi. Demak, nafsga ergashgan kishi tashqi tomondan odam bo'lsa-da, ma'naviy jihatdan komillikdan yiroq hisoblanadi.

Keyingi misralarda esa manfaatparast insonning xulqi obrazli tarzda tasvirlanadi. U qayerga bormasin, faqat o'z foydasini ko'zlaydi, har bir vaziyatdan o'zi uchun manfaat izlaydi. Aynan "Qo'nolg'a olib qayda qo'nsa diram" misrasida ishtiyoq san'ati qo'llanilgan bo'lib, "qo'nolg'a" va "qo'nsa" so'zlari bir o'zakdan kelib chiqqan holda ma'no jihatdan o'zaro bog'lanadi. Bu badiiy vosita orqali shoir insonning harakatlari doimiy ravishda bir maqsad — foyda izlashga qaratilganini ta'kidlaydi. Ya'ni u qayerga "qo'nsa" ham, asl niyati "qo'nolg'a", ya'ni o'lja va manfaat orttirish bo'lib qoladi.

Shu tariqa Alisher Navoiy ushbu ruboiy orqali insonni nafsdan tiyilishga, halollik va ma'naviy poklikni ustun qo'yishga chaqiradi. Mahbub ul-qulubdagi bunday misralar o'quvchini chuqur mushohadaga undab, insoniylikning asl mezonini moddiy manfaat emas, balki axloqiy poklik ekanini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridagi she'riy parchalar badiiy tasvir vositalariga nihoyatda boyligi bilan ajralib turadi. Ushbu vositalar nafaqat asarning estetik qiymatini oshiradi, balki undagi g'oyaviy mazmuni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tashbeh, ishtiyoq, tazod, tajnis va boshqa badiiy vositalar orqali shoir inson ruhiyati, axloqiy kamoloti hamda tasavvufiy qarashlarni obrazli va ta'sirchan tarzda ifodalagan. Ayniqsa, ruboiylar orqali berilgan falsafiy fikrlar o'quvchini mushohada qilishga, o'z hayotiga baho berishga undaydi.

Demak, "Mahbub ul-qulub" asaridagi badiiy tasvir vositalari nafaqat lingvistik hodisa, balki chuqur g'oyaviy-estetik ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali Navoiy ijodining betakror badiiy olami namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. **Mahbub ul-qulub**. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2011.
2. Alisher Navoiy. **Mukammal asarlar to‘plami. 14-jild (Mahbub ul-qulub)**. – Toshkent: Fan, 1998. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
3. Quronov D. “Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari”. — Toshkent, “Navoiy universiteti”. 2018.
4. Izzat Sulton. **Navoiy qalbi gavhari**. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
5. Naim Karimov. **Alisher Navoiy va badiiy tafakkur masalalari**. – Toshkent: Fan, 2001.
6. Abduqodir Hayitmetov. **Navoiy lirikasi va poetik mahorati**. – Toshkent: Fan, 2005.